

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi haqida

Davlat va jamiyat hayotining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi, inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati vazifasini o‘tovchi Konstitutsiya nafaqat davlatchilikning muhim atributi, balki har bir xalqning milliy g‘ururi va o‘z-o‘zini hurmat qilishidir. O‘zbekiston Konstitutsiyasi ham bundan mustasno emas.

O‘zbekistonda har yili dekabr oyining boshida Konstitutsiya dekadasini nishonlash odat tusiga kirgan. Bu yil esa asosiy Qonunimizning 30-yilligini nishonlash konstitutsiyaviy islohotlar arafasida o‘tmoqda. Konstitutsiyaning 76 ta moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish rejalashtirilgan. Qonun loyihasiga ko‘ra, asosiy qonunga 15 ta yangi modda va 1 ta yangi bobni kiritish rejalashtirilgan. Loyihada fuqarolar tomonidan taqdim etilgan 160 mingga yaqin takliflar inobatga olingan.

Bugun 1-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti va Toshkent davlat transport universiteti hamkorligida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan o‘tgan yillar mobaynida Asosiy Qonunimizning bosib o‘tgan yo‘li xususida fikr almashish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etildi.

Konferensiya doirasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat va davlat hayotini yangi bosqichga ko‘tarishdagi roli, ta‘lim tizimida Konstitutsiyani o‘rganishning nazariy va amaliy jihatlari, xalqaro huquq va milliy qonunchilikning o‘zaro ta‘siri muammolari muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining milliy davlatchilikni shakllantirishdagi o‘rni, ijod erkinligining konstitutsiyaviy asoslari, konstitutsiyaviy normalarning amaliy ijrosini ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risidagi ma‘ruzalar tinglandi va muhokama qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson qadri-qimmati, jamiyat erkin va farovon hayotining kafolati sifatida e‘tirof etildi.





Muhokamada O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti xodimlar, Toshkent davlat transport universiteti vakillari ishtirok etdi.

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi yakunida besh jildlik "Konstitutsiyaviy islohotlar: dunyo mamlakatlari tajribasi" kitobining uch jildi, "Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar Konstitutsiyalari" va "Jahon konstitutsiyalari" kitoblari taqdimoti bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti xodimlari tomonidan tayyorlangan ushbu nashrlar konstitutsiyaviy-huquqiy savodxonlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, mamlakatimiz Asosiy Qonunining 30 yilligini nishonlashga munosib sovg'a sifatida baholanishi mumkin.



Anjumanda ma'ruzachilardan tashqari ilmiy muassasalar xodimlari va oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari ham ishtirok etdilar.

